

FITRATNING IJODIY MEROsi

*Mirzaliyeva Zarinabonu Jahongir qizi
Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti
2-bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Turkiston jadid ma'rifatparvarlari Abdurauf Fitratning adabiyotdagi faoliyati va pedagogik qarashlari bayon etiladi. Fitrat, O'zbekiston va jahon adabiyoti uchun ahamiyatli shaxslardan biri hisoblanadi. Uning adabiyotlarida turmush, ijod, va tarbiya sohasidagi fikrlarini ko'rsatish jiddiy ahamiyatga ega. Maqola Fitratning adabiyotdagi faoliyati va pedagogik qarashlarining O'zbekistonning ma'naviy va madaniy o'sishi uchun katta ahamiyatga ega ekanligini ilmiy va nazariy ravishda ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: sayha, she'r mansur, xurriyat, Turkiya, Abo Muslim, adabiyotshunoslik, sarrof

Abdurauf Fitrat ijodi yaqin tariximizning eng porloq sahifalaridan birini tashkil qiladi. Uning zamonida adabiyotni jamiyatga xizmat qildirish bilan shug'ullanmagan ijodkorni qiyin bo'lsa-da, so'z va ish birligini xech kim u olib chiqqan maqomga ko'tara olgan emas. Fitrat qomusiy ilmiga ega, o'z qalamini badiiy va ilmiy ijodining juda ko'p sohalarida sinab ko'rgan va muvaffaqiyat qozongan kamyob iste'dodlardan. X.Boltaboyev "Noma'lum Fitrat" maqolasida adib asarlarining 87 ta ko'rsatkichini ilova qilgan¹. Ilhom G'aniyev va B.Ergashev 1994-yilda bu ko'rsatkichni 134 taga yetkazdilar². Ularning salmoqli bir qismi she'r, hikoya, ijtimoiy nasr, drama singari badiiy janrlarda yozilgan asarlardir. Ikkinchisi bir qismi publistika, kundalik maqolalar. Yana bir qismini turlituman o'quv darsliklari tashkil qiladi. Nihoyat, yana muhim bir qismi ilmiy-adabiy tadqiqotlardan iborat. Darvoqea, uning ilmiy tadqiqotlari birgina adabiyotshunoslik doirasida cheklanmaydi.u zabardast tilshunos, tarixchi, faylasuf, huquqshunos, musiqashunos. U o'rta asrlardagi qomusiy ziyorolarimiz sinagri musiqaning ham nazariyasi, ham amaliyoti bilan shug'ullangan. U shaxmat tarixi haqida tadqiqiy maqolalar yozgan, hatto yer qurilishining ilmiy jihatlari bilin qiziqqan va yaqindan shug'ullangan keng qamrovli iste'dod ekanligi ma'lum bo'ladi. Fitratning bizga ma'lum bo'lган she'rlari, shu jumladan o'zbekchalar u qadar ko'p bo'lмаган. Mutaxasislar uning o'zbekcha she'rlari adadini 20 astrofida belgilaydilar. U, taxmin qilish mumkinki, talabalaik yillaridayoq she'r mashq qilgan. Ilk she'rlarini Buxoro

¹ "Yoshlik" jurnali, 1990, 4сон.

² "Abdurauf Fitrat e'lon qilingan asarlarining asosi ko'rsatkichi (1909-1936). Kitobda: Ilhonm G'aniyev. Fitratning tragediya yaratish mahorati, T., G'afur G'ulom nomodagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994, 135-145-betlar.

muhit ann'anasiga ko'ra forscha yozgan. XX asrning boshlarida unin "Mijmar" taxallusli shoir sifatida taniganlar. Mijmar-xushbo'y narsalar solib tutiladigga cho'g'don. Ne'matulla Muxtarm uni o'z tazkirasiga kiritar ekan, shoirning kasbi va taxallusidan kelib chiqib, so'z o'yoно qiladi, unga iltifot ko'rsatadi. Chunonchi uni "udso'z" (xushbo'y narsalarni tutuvchi), "baxfurafo'z" (yoqimli narsalarni yoquvchi) deb ta'riflaydi. Sarrof so'zining "so'z ustasi", 'suxandon" ma'nolaridan ham samarali foydalanadi. Nur taratuvchi tabi bilan mijmar singari xumorlar bazmiga gulu rayhonlar shulasini sochuvchi, deb sifatlaydi.

Fitratning dastlabki she'riy to'plami "Sayha", mutaxasislar ma'lumot berishlaricha, 1909 yilda Istanbulda bosilgan. "Sayha", "Farxang"da "bong, faryod, daxshatingiz, nara" deb izohlangan. Undagi she'rlar Vatan haqida bo'lган. U davrda albattaki, vatan haqida osoyishta soi'zlab bo'lmasdi. Uning dardi nihoyasiz, jarohatlari haloklatlari edi. 1917 yilda Fitrat o'zi muharrirlik qilgan "Xurriyat" gazetasida "Yurt qayg'usi" nomi bilan bir turkum she'rlar e'lon qiladi. Diqqatga sazovor joyi shundaki, ularning aksariyati sochma she'rlar, Fitratning o'zi aytmoqchi, mansuralar. Bundan tajriba adabiyotimizda ilk bor Xamza tomonidan qilingani ma'lum. Masalan, u "Sadoi Turkiston" gazetasining 1914 yil 18 iyul sonida bosilgan nir she'riga "She'r Mansur"³. She'rlar ruknidan ko'rinish turganidek yurt - Vatan qayg'usiga bag'ishlangan. Zamon inqiloblar zamoni edi. Chor hukumati quladi va epchil millatlar darxol istiqlol refalarini ko'ra boshladilar. Turkistonning taqdiri qanday bi'ladi. Ayniqsa, so'nggi asrlarda zalolatga botgan, dunyodan uzilib, fisqu fujurga ko'milgan, o'z qiyofaisini yoqota boshlab, o'zga millat etoviga tushgan Turkistonning, Fitratning qiynayotgan dard-shu.

Abdurauf Fitrat dramaturg sifatida juda katta shuhratga ega, U barcha zamondoshlari tomonidan bu borada yakdillik bilan e'tirof etilgan ijodkor edi. Mutaxasislarning aqniqlashicha, u o'ndan ortiq dramatic asar yozgan. Bular: "Begin" (1916), "Temur sa'anasi" (1918) kabilar. Ba'zilarning mazmuni va yo'nalsihi haqida ayrim ma'lumotlar saqlangan, xolos. Chunonchi, "Abo Muslim" besh parda, yeti ko'rinishli tarixiy drama. 747-750 yillarda umaviylarga qarshi kurashib, abbosiylni hokimiyatga keltirilgan qo'zg'olon va uning rahbari Xurosonlik Anu Muslim (727-755) taqdiridan hikoya qiladi. 20-yillarda sahnaga qo'yilgan. 1921 yil "Turkiston" gazetasida Cho'lponning u haqida taqrizi ham bor. "Og'uzxon" turkiy xalqlarning milodning boshlarida yashagan ularning markazlashgan hokimiyat – xoqonligini tuzgan shu nomli sarkarda haqida. "Qon" dramasining syujeti, ma'lumotlarga qaragnda, muallif zamonasidan olingan, uning bir muddat sahnaga qo'yilganini ham naql qiladilar.

Fitrat ijodiy me'rosining muhim qismini uning nasriy asarlari va publistikasi tashkil qildi. U o'z hayoti davomida yuzlab jangovar maqolalar, o'nlab ijtmoiy

³ Begali Qosimov. Izlay-izlay topganim..., T., 1983, 166-169-betlar.

kekir risolalar, hikoylar yaratdi. Birgina Turkiston matbuoti emas, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Kavkaz matbuotda ishtirok etadi. Uning risolalari 9 "Munozara", "bayonoti sayohi hindi", "Oila", "Rahbari najot" kabi) fors tilida yozilgan. Bularning to'rttalasi ham bugungi kunda o'zbekchalahtirib, nashr qilingan va ko'tarib chiqqan mavzu'masalasiga ko'ra deyarli har biri voqeа sifatida qabul qilinga edi. Masalan, Fitratning ilk asari dramatic publistikasiga moyil "Munozara" zamonining zayli bilan tarixiy tarqqiyotning ikki pog'onasida turib qolgan, din va dunyo, jamiyat va ma'rifat haqida ikki xil ko'z qarashga ega bo'lган ikki kishining - 'jamiatni, bidatni qoraladi, unga chinakam e'tiqdni qarshi chiqdi. Aqlu donishni, uning samarsi taraqqiyot va farovonlikni himoya qildi. "O'z millatining saodat va osoyishi uchun" fidoyilik qilgan turk, eron, hurriyatçilari Abvarbek, Niyozbek, Sattorxon, Boqirxonlarni, "Rusiyadagi haqiqiy insonlar" dan "dohiy va faylasuf To'lstuy" ni, uning "saodati bashar" yo'lidagi xizmatlarni ibrat qilib ko'rsatdi.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati tarixning eng qaltis damlarida Millat va Vatangga xizmat qilmoqni yorqin namunasidir. Har qanday holda ham xalq bilan birga bo'lish, uning manfaatini har narsadan muqaddas tutish Fitrat shaxsiyatining eng muhim xusussiyatlaridan biri edi. U o'zbek dramachiligini yuksak pog'onaga ko'taradi, zamonaviy adabiyotshunoslik ilming bonysi bo'lib tarixga kirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Yoshlik" jurnali, 1990, 4-son.
2. "Abdurauf Fitrat e'lon qilingan asarlarining asosi ko'rsatkichi (1909-1936). Kitobda: Ilhonm G'aniyev. Fitratning tragediya yaratish mahorati, T., G'afur G'ulom nomodagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994, 135-145-betlar.
3. Begali Qosimov. Izlay-izlay topganim..., T., 1983, 166-169-betlar.